

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR XOTIRA XUSUSIYATI VA UNING RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR

**Islomova Ozoda Sayfiddinovna- Jizzax davlat pedagogika instiuti,
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi**

**M.K.Asliyeva-Jizzax davlat pedagogika instiuti,Defektalogiya
yo'nalishi II-bosqich talabasi**

Anotatsiya:Ushbu maqolada xotira xususiyatlari, bolalar xotidasi taraqqiy edish davirlari, bolalar xotirasi tasnifi, turli endogen va egzogen tasirlarni xotiraga tasiri, bolalar xotirasini rivojlantirish yo'llari haqida.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh bola, xotira, nutq, fonetik, tasnif, motorika.

Insoniyat orasidagi global muammolardan biri bo'lgan xotiradagi muammolar (xotirasizlik) yoddan chiqarib qo'yish, eslay olmaslik yoki unutish, bularga sabab nima? Degan savol barcha davrlarda olimlarning bu yo'nalishda izlanishlar olib borishga undagan, bu izlanishlar asosida xotira xaqidagi ilmiy nazaryalar, xotirani rivojlantirish uslublari ishlab chiqilgan.

Xotirasiz inson «abadiy go'daklik holatida» qolgan bo'lar edi (I.M. Sechenov) Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi: xotira o'zi nima?

Xotira atrof muhitdagi voqeylikni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv xolda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va novebral shakilda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushurish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon alohida va umumiy namoyon qiluvchi xodisa, barcha taasurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik(yunoncha mnema-xotira)faoliyatidir.

Xotira – shaxs psixik hayotini belgilab beruvchi xususiyat. Uning ahamiyati o'tmish voqealarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Eng oddiy psixik aktning sodir bo'lishida har bir elementni keyingisiga bog'lash uchun esda saqlab qolish katta ahamiyatga ega. Bunday bog'lanishga layoqatsiz bo'lgan insonning rivojlanishi mumkin emas.Faqat xotira insoniylik madaniyatining yo'qolib ketmasligiga, tafakkurimizning tadbiiq etilishiga va tuyg'ularimizning kechishiga ko'mak beradi. Bosh miya po'stlog'ida paydo bo'ladigan tashqi olam obrazlarisiz yo'qolib ketmaydi. Ular uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan iz qoldiradilar. Psixikadagi xotira ularning zahirasi bo'lib xizmat qiladi. Unda kechadigan barcha jarayonlar mnemik jarayonlar deb ataladi (yunonchadan «mnema» - xotira). Xotira – bu inson

tomonidan o'tmish tajribasini esda olib qolish, saqlash va keyinchalik eslashning psixik jarayoni.

Xotiraning bir necha turlari mavjud: ko'rgazmali-tasavvurli, so'zli-mavhum va oraliq. Bu turlar inson yuqori asab faoliyati birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro nisbatiga bog'liq bo'ladi. Xotira u yoki bu turning ustunligi, xususan, inson hayoti va faoliyatining turlari va shart-sharoitlariga, hayot davomida individual tajribalarni ortirilishiga bog'liq. Ko'rgazmali-tasavvurli xotira turli xil taassurotlarni eslab qolishda qay analizator unumdor bo'lishiga qarab harakatlantiruvchi, ko'rish va eshitish xotirasi farqlanadi. Ko'p hollarda aralash turini uchratish mumkin: ko'rish-harakatlantiruvchi, ko'rish-eshitish, eshitish-harakatlantiruvchi. Bu haqida Abu Ali ibn Sino quyidagicha fikr bildirgan: "Bolalar birga bo'lganda doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar". Bola tug'ulgandayoq amalda qo'lashga tayyor bo'lgan sensor va harakat malaka instinktlariga ega bo'ladi, bu uning olamga moslashib olib o'z rivojlanishida tezgina o'sib ketishga yordam beradi. Analizatorlar faoliyati va tashqi omillar tasiri ostida bolada bilish jarayonlari rivojlanadi. Bu jarayon ilk yoshda boladagi tashqi tasrlarga nisbatan javob reaksiyasida namoyon bo'la boshlaydi. Kattalar yordami bilan bajariladiga barcha xatti-harakatlar bolaning keyingi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy vazifa hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi juda jadal rivojlanadi. Bolaning hayotiy tajribalarni o'zlashtirishida dastlab harakatli, emotsional va obrozli xotira ishtirok etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular ertak, she'r va hikoyalar eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv tizimining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi. Bog'cha yoshida esa bolalar xotirasi yangi faoliyatlar va bolalarning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrali bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushurish ustunlik qiladi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materiallarni oson esda saqlab qoladi. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda kata ro'l o'ynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq soda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Ota-ona nutqida kamchilik bo'lsa, bu bola nutqida ham

nuqsonlar kuzatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Nurqidagi kamchilik bolalardagi bilish jarayonlari va boladagi umumiy psixik faoliyatlardagi turli kamchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bois anomal rivojlanishning bir qonuniyati sifatida nutqiy faoliyatning buzulishi kiritilgan bo'lib, bu so'zlashuvni bevosita ifodalay olmaslik, ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, ma'lumotdagi qiyinchiliklar, materialni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikirlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to'sqinliklar bilan ifodalanadi. Xotira hajmining buzulishi bosh miya yarim sharining disfunktsiyasiga, taqdim etilgan ma'lumotlarni tiklash tartibidagi qiyinchiliklar esa-o'ng yarim sharning disfunktsiyasi bilan bog'liq. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'rinish xotirasi ko'lami deyarli me'yordagidan bolalar xotirasidan farqlanmaydi. Dizatrik bolalarda esa geometrik figuralarni eslab qolish ehtimol juda kam. Bunday bolalarda bu sohadagi past natijalar idrokni buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq. Bu bilan birga eshitish xotirasi kamchiliklarining darajasi nutq rivojlanishining pasayishiga olib keladi. Nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar aniqlandi: ular vazifalarni bajarish jarayonida sekinroq mo'ljal olishadi va ularning natijalari me'yordan pastroq bo'ladi. Nutqida kamchiligi bor bolalar yo'l qo'yilgan xatolarini e'tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda xatolarni to'g'rilash bir xil past darajada bo'lar. Motor alalik bolalarning nutqi me'yorda rivojlangan bolalar bilansolishtirilganda, eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi motoralaliklarda ancha past ekani ma'lum bo'lgan. Motor alalik bolalar tez-tez murakkab yo'l-yo'riqlarni eslaridan chiqarib qo'yadilar berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba'zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo'l-yo'riqni aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar. Faoliyat tuzilishining buzilishi yo'l-yo'riqni noaniq va uzoq yuluq idrok qilish faqatgina eshitish xotirasining pasayishi bilan emas, balki diqqat xususiyatlari bilan ham bog'liq. Qayta eslashdagi yo'lga qo'yilgan xatolarni nutq buzilishiga ega bolalar odatda sezmaydi va tuzatmaydi. Kechiktirilgan qayta eslash barcha nutq nuqsoniga ega bolalar toifasida bir xilda quyi (past) bo'lib chiqadi. Nutqida kamchiliklarga ega bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi: ko'rinish xotirasi ko'lami deyarli me'yorga to'g'ri keladi, geometrik figuralarning esda qolishi bundan mustasno; eshitish xotirasining umumiy pasayishi; kechiktirilgan qayta tiklashning quyi darajasi; mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi. Ammo bu turdagi bolalarda, mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlangan bo'ladi. Bolalar esda olib qolgan narsalarini sistemasi yo'q, shu bois bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya'ni esida chuqur o'rinish olgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Agar maktabgacha yoshdagi bolaga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri

bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaganda ularda qisqa muddatli xotirasi hajmi kattalarga qaraganda ancha pastligini va taxminan bola yoshiga teng ekanligini yodda saqlash kerak. Tajribalarda ko'rsatilishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida mexanik va ixtiyorsiz esda olib qolish hamda esga tushurish qobiliyati biroz susayadi. Bundan bola ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan hulosaga kelinmaydi. Bola o'sib, turmush tajribasi ortgan sari, ular narsa va hodisalar surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimiki, keyingi yillar mobaynida bog'cha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo'ladi, degan fikr mavjud bo'lib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo'yilar edi. So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushinib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan, Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'latushiniladigan material berilganda yaqqol ko'rinadi. Bolalar juda ko'p narsalari asosan turli o'yinfaoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko'pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo'lgan tartibsizlikni yo'qotish va xotirasini o'stirish juda ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo'lgan materialni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o'yinlardan foydalanish, materialni kichik qisimlarda berish maqsadga muvofiqdir. Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Bolalar xotirasini tekshirish va rivojlantirish uchun turli xildagi usullardan foydalanish mumkin. Chunki maktabgacha yoshdagi bola xotirasining barcha tiplari o'sa boshlaydi. Mexanik tarzda o'zlashiriladigan nutq materialni ham qisman harakat xotirasiga kiritadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar tez aytiladigan turli ritmdagi she'rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar. Masalan, bekinmashoq, o'yinini o'ynash oldidan aytiladigan "sanashlar". Bekinmashoq o'yinining sanashlarida hech qanday ma'no yo'q, lekin juda ifodali va jarangli ritmika bor.

Inson faoliyatiga singib ketgan ma'lumotlar uning uchun muayyan ahamiyat kasb etganligi bois bular xech qachon ularning yodidan chiqib ketmaydi va faoliyat jarayonida doimiy takrorlanib turadi. Biz bolalar bilan mashg'ulot olib borganimizda ham qayta takrorlashga, ko'rgazmali vositalar bola uchun tushunarli bo'lishiga va mashg'ulot davomida ulardan samarali foydalanishga, bola o'yin

faoliyatida o'zi uchun yangi bo'lgan materialni faoliyat jarayonida qo'llay olishiga etibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "UMUMIY PSIXOLOGIYA" P.I.Zufarova, P.I.Ivanova. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlashriyoti, Toshkent-2015
2. "BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI" Z.T.Nishonova, G.K. Alimova, A.G'.Turg'unboeva, M.X.Asranboeva. TOSHKENT-2017.
3. "MAXSUS PEDAGOGIKA" P.M.Po'latova, L.Sh. Nurmexammedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. TOSHKENT-2014
4. "UMUMIY PEDAGOGIKA" N.Atayeva, F.Rasulova , M.salayeva, S.Hasanov. TOSHKENT-2012.
5. "PSIXALOGIK XIZMAT" Z.T.Nishonova. TOSHKENT „YANGIYO'L POLIGRAPH SERVICE" 2007.
6. "PEDAGOGIK-PSIXALOGIK DIAGNOSTIKA". D.A.Nurkeldiyeva. Toshkent „VNESHINVERSTPROM" 2009.I
7. "UMUMIY PSIXALOGIYA". E.G'oziyev. „Asian Book House" Toshkent 2020.
8. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).
9. Muzaffarova, X. (2020). OQUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEXNOLOGIYASI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Музаффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик эксперимент ўтказиш технологияси. *Современное образование (Узбекистан)*, (7).
11. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. *Молодой ученый*, (20), 738-740.
12. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. *Bola va Zamon jurnal. T*, (2-2019).
13. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. *Журнал Педагогики и психологии*

в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>

14. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

15. Islomova, O. (2022). NUTQ BUZILISHLARI PSIXOPROFILAKTIKASIDA TURLI XIL PSIXOLOGIK O'YINLARNI TASHKIL ETISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>

16. Islomova, O. (2022). NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA "STEM" TIZIMIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4824>

17. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).

18. Muzaffarova, X. (2021). Акли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

19. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>

20. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>

21. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAHOVCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>

22. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1)

23. Islomova, O. (2022). NUTQ BUZILISHLARI PSIXOPROFILAKTIKASIDA TURLI XIL PSIXOLOGIK O'YINLARNI TASHKIL ETISH. *Журнал*

Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>

24. Islomova, O. (2022). NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA “STEM” TIZIMIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4824>

25. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>

26. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>

27. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(64). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183

28. haqberdiyev jamoliddin MAXSUS MAKTAB –INTERNATDA KOKLEARI MPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiyafanlari2021-09-30<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>

29. haqberdiyevjamoliddin"KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLA QANDAY REABILITATSIYAGA MUHTOJ?"Zamonaviy ta'lim dapedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jspi.uz>

30. haqberdiyevjamoliddin, mannonovanozima NUTQNING KECHIKISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Zamonaviyta'limdapedagogikavapsixologiyafanlari

31. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB -INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>

32. Jamoliddin Haqberdiyev, KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLANI REABILITATSIYA QILISH MASALALARI , *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*: № 1 (2020): *Journal of Pedagog yand psychologyin modern education*<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>

33. Jamoliddin Haqberdiyev, ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАДЕРЖКУ РЕЧИ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ , *Журнал Педагогика и психологии в*

современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>